

BUGUNGI KUN SUD-HUQUQ ISLOHOTLARI

Ubadullayev Ixomjon Raxmatovich

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi 2-darajali yurist

Axmedova Nilufar Avazbekovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi buxgalteri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315604>

Annotatsiya. Sud hokimiyati demokratik davlatning ustuni hisoblanadi. Sud-huquq tizimini isloh qilish bevosita mamlakatni isloh qilish va ynagilash demkadir. Ushbu maqolada zamonaviy sud-huquq tizimidagi islohotlar haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: sud-huquq, demokratiya, sud hokimiyati, sudyalalar, Konstitutsiya, qonun va h.k.

СУДЕБНЫЕ РЕФОРМЫ СЕГОДНЯ

Аннотация. Судебная власть является опорой демократического государства. Реформирование судебной системы напрямую означает реформирование и улучшение страны. В данной статье подробно рассматриваются реформы в современной судебной системе.

Ключевые слова: судебная власть, демократия, судебная власть, судьи, Конституция, закон и др.

JUDICIAL REFORM TODAY

Abstract. The judiciary is the backbone of a democratic state. Reforming the judiciary directly means reforming and improving the country. This article discusses in detail the reforms in the modern judicial system.

Keywords: judiciary, democracy, judiciary, judges, Constitution, law, etc.

KIRISH

Sud hokimiyati hukumatning uchinchi organidir. U qonunlarni muayyan ishlarga qo'llash va barcha nizolarni hal qilish uchun javobgardir. Haqiqiy "qonunning ma'nosi" - bu sudyalalar turli ishlar bo'yicha o'z hukmlarini chiqarish jarayonida qanday qaror qabul qiladilar. Fuqarolar nuqtai nazaridan, sud hokimiyatning eng muhim organidir, chunki u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning mumkin bo'lgan haddan tashqari ko'payishidan himoyachi sifatida ishlaydi. Sud hokimiyatining konstitutsiya va xalqning asosiy huquqlari posboni-himoyachisi sifatidagi roli uni boshqa ikki organga nisbatan hurmatliroq qiladi. Agar qonun jim yoki noaniq bo'lsa yoki mamlakatning boshqa qonunlariga zid bo'lsa, sudyalalar ishlarni hal qilishda ularning adolat, adolat, xolislik, halollik va donolik tuyg'usiga bog'liq. Bunday qarorlar har doim qonun ijodkorligini o'z ichiga oladi. Odatda u aktsiyadorlik qonunchiligi deb ataladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaning qo'riqchisi sifatida ishlaydi. Konstitutsiya davlatning oliy qonuni bo'lib, uni talqin qilish va himoya qilish sud hokimiyatining zimmasidadir. Shu maqsadda sud hokimiyati har qanday qonunni konstitutsiyaning mazmuni va mazmuniga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlash uchun sud tekshiruvini o'tkazishi mumkin. Agar biron bir qonun ultra vires (konstitutsiyaga zid) deb topilsa, u sud tomonidan rad etiladi va kelajakda o'z kuchini yo'qotadi. Sudning bu vakolati sud nazorati vakolati deb ataladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bugungi kunda mamlakatimizda mustaqil, ochiq va shaffof sud tizimiga erishish borasida olib borayotgan islohotlar yanada takomillashtirilmoqda. Sudyalarning adolat va qonunning

haqiqiy himoyachilari bo'lishiga erishish zarur va shartligi qonun doirasida mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-yanvardagi "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va u asosda Sudyalar oliy maktabining tashkil etilishi, faqatgina shu o'quv yurtini tamomlagan tinglovchilar sudyalik lavozimiga e'lon qilingan tanlovlarda ishtirok etishi mumkinligi sud tizimidagi islohotlarda muhim qadam bo'ldi. Ma'lumki, 2021-yil 20-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unga qadar Kengash sudyalik lavozimlariga nomzodlarning zaxirasini shakllantirish kabi vakolatlardan biriga ega edi. Bu esa o'z-o'zidan sudyalikka nomzodlarning zaxirasini shakllantirish uchun qo'shimcha kuch va sarf-xarajatlarni talab etar, Oliy maktabga kirish imtihonlarida ishtirok etuvchi nomzodlarning oz bo'lsada huquqlari cheklanishiga olib kelar edi. Shuningdek, bugungi kunga kelib sudyalikka zaxiraga olish instituti o'z mazmun-mohiyatini yo'qotdi, shu sababli sudyalikka zaxiraga olish institutini tugatishni davrning o'zi taqozo qilayotganligi sababli va 2021-yil 28-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan Qonunning 7-moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Kengash o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlashni tashkil etadi, rahbar sudyalik lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar va taqdimnomalar kiritadi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari sudyalari, tumanlararo ma'muriy sudlarning raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalari, hududiy harbiy sudlarning raislarini lavozimga tayinlaydi.

Sudyalar oliy malaka hay'atining xulosasiga ko'ra, sudyalarni ularning vakolatlari muddati davrida o'z arizalariga asosan sudlarning raislari lavozimlariga o'tkazish vazifasini ham bajaradi. Respublika ma'muriy sudining sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo ma'muriy sudlarining raislari, ularning o'rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga o'tkazish to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasiga taqdimnomalar kiritadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudining, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlarining, tumanlararo ma'muriy sudlarning, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining, hududiy harbiy sudlarning sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshini sudyaning roziligi bilan besh yilgacha uzaytirish mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, sudyalarni, sud raislari, o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyalari va hududiy harbiy sudlarning raislarini ham lavozimidan ozod qiladi. Shuningdek, Kengash jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalar tomonidan Sudyalar odobi kodeksi talablariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi, sudyalarning faoliyatini ularning kasbiga munosibliigi nuqtayi nazaridan o'rganadi, Sudyalar odobi kodeksini tasdiqlaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Davlatimiz rahbari farmonining 3-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, ya'ni Kengash raisi sud hokimiyati mustaqilligini va sudyalarda daxlsizligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yil yakuni bo'yicha axborot taqdim etishi begilanganligi sababli Kengash raisiga Kengashga yuklatilgan barcha vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishida mas'ul ekanligi qonun bilan mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga asosan, davlat organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etilishi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish davlat organining rahbari yoxud boshqa vakolatli shaxs tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shu sababli Qonunning 9-moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Shuningdek, Kengash raisining doimiy asosda ishlovchi o'rinbosari joriy etilib, unga sudlarda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni tizimli ravishda bartaraf qilish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish vazifasi yuklatilgan. Kengash raisi o'rinbosari zimmasiga Sudyalarda daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasining faoliyati, sud tizimida sudyalik lavozimlariga tanlash va tayinlash jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish, shuningdek axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyati ustidan bevosita rahbarlik qilish yuklatilgan. Shu sababli Kengash raisi o'rinbosari vazifa va maqomi qonun qabul qilish yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan. Sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, kasb obro'-e'tiborini oshirish, yuqori malakali va samarali faoliyat yuritadigan sud korpusini tashkil qilish maqsadida birinchi marta sudyalarning vakolat muddatlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, sudyalarni dastlabki besh yillik va navbatdagi o'n yillik muddatlarga tayinlash (saylash), kelgusida esa lavozimni muddatsiz davr mobaynida egallash nazarda tutiladigan tartib joriy qilindi.

MUHOKAMA

Sudya faoliyatining samaradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlaydigan aniq mezonlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri. Shu sababli, bu kabi mezonlar, albatta, qonun bilan mustahkamlangan bo'lishi sudyaning o'z ustida tinmay ishlashiga va odil sudlov samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qonunning 12-moddasiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimcha aynan ushbu masala bilan bog'liqdir. Endi elektron reyting dasturi orqali sudyalarda faoliyatining samaradorligini monitoring qilish Kengash a'zosining huquqlaridan biridir. Kengash a'zosining huquqlari mavjud ekan, uning albatta qonun bilan belgilab qo'yilgan majburiyatlari ham bo'ladi. Shu sababli, Kengashga sud tizimida korrupsiya holatlarining oldini olish, sudya kadrlarini tanlash va tayinlash faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash vazifalari yuklatilgan. Sudyalarda daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi tashkil etilishi munosabati bilan, 2017-yil 4-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish choralari ijrosini ta'minlash maqsadida 13-moddaning birinchi qismiga tegishli o'zgartish kiritildi. Jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash bo'yicha huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, jinoiy ishlar tergovni tezkorligini oshirish doirasida jinoyat sodir etganlikda gumonlanuvchi shaxslarni hibsga olish muddati 72 soatdan 48 soatga hamda qamoqda saqlash va uy qamog'i, shuningdek jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergov ko'rinishidagi jinoyatning oldini olish choralari qo'llanilishi eng yuqori muddatlari 1

yildan 7 oygacha qisqartirilmoqda. Mazkur choralarning joriy qilinishi, bir tomondan, fuqarolarni ularning erkinliklari asossiz cheklanishlari holatlaridan himoyani, ikkinchi tomondan, dastlabki tergov va tergov organlari mas'uliyati hamda faoliyat samaradorligi oshirilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, odil sudlovning sifat va samaradorligini oshirish, sudlarning mustaqilligini, mas'uliyatini kuchaytirish, har tomonlama yetuk, halol, kasbiga sadoqatli sudyalar korpusini shakllantirishga qaratilgan bu yangi o'zgarishlar inson manfaatlarini himoya qilishga, aholining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga hamda huquqiy davlat barpo qilish hamda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishdek oliy maqsadga erishishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/docs/-3050491>
2. <https://www.yourarticlelibrary.com/essay/law-essay/judiciary-functions-importance-and-an-essential-quality-of-judiciary/40352>
3. <https://uzbekistan.un.org/uz/47434-ozbekistonda-sud-huquq-sohasidagi-islohotlar-qisqacha-tahlil-va-tavsiyalar>
4. <https://sverenins.uz/uz/news/sudebno-pravovaya-reforma.html/>